

## **ERKIN VOHIDOV IJODIDA ANTONIMALAR**

Maftuna Rahimova

Phd

M. Nazirova

QDPI talabasi

### **Annotatsiya**

Maqolada Erkin Vohidov ijodida qo'llangan antonimalarga oid ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati va zidlash orqali so'z ta'sirchanligini oshirilganligi haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Antonim, g'azal, uslub, lirik she'r, aruz, qasida, vazn.

### **Аннотация**

В статье представлены научные сведения об антоним свободне слова. Обсуждались словесные навыки Еркина Вахидова и тот факт, что он усиливал воздействие своих слов за счет противоречий.

**Ключевые слова.** Антоним, газель, лирическая поэма, стиль, аруз, ода.

### **Annotation**

The article presents scientific information about at the antonym used in the work Erkin Vohidov. Erkin Vohidov's skill in using words and increasing the effectiveness of words through contradictions were discussed.

**Key words.** Antonym, ghazal, lyric poem, style, aruz, oda

Odatda, leksik antonimiyanı zid ma'noli so'zlar (leksemalar) tashkil etadi deb qaraladi. Bunda ikki so'z o'zlarining qarama-qarshi, zid ma'nolari asosida bog'lanib, antonimik juftlikni hosil qiladi. Leksik antonimlikning muhim belgisi sifatida ulardan birining aytilishi bilan ikkinchisining xotiraga kelishi ham tushuniladi. Xususan, yaxshi deyishimiz bilan yomon so'zi esimizga keladi, shu asosda bu so'zlar bir-birini eslatib turadi. Demak, o'z-o'zidan tushuniladiki, antonim so'zlar orasida noo'xshashlikka, farqlilikka, zidlikka asoslangan assotsiativ manosabat mavjud. Assotsiativ munosabat antonim so'zlardan birining ikkinchisiga nisbatan belgi bo'lishini, u haqida xabar berishini ta'minlaydi.

Biz sinonim so'zlarning bir-biriga nisbatan belgi vazifasini bajarayotganda, ular orasidagi o'xshashlik, aynanlik asos bo'layotganligini aytgan edik. Antonim so'zlar munosabatida buning aksini ko'ramiz. Antonimik munosabat o'xshashlikning aksi bo'lgan farqlilik, zidlikning etakchiligiga asoslanadi. Demak, leksik sinonimiya o'xshashlik (aynanlik), leksik antonimiya zidlik (farqlilik) assotsiatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan semantik hodisalardir. Bunda, umuman, har bir so'zda aynanlik+farqlilik (integral va differentials semalarning) mavjud bo'lishini hisobga olsak, sinonimiyada aynanlik, antonimiyada farqlilik etakchi, bosh maqomda ekanligini sezish qiyin emas. Antonimlardan she'riyatda ta'sirchanlik va farqlilik, qiyosni yaqqol ko'rsatib berishdan foydalaniladi.

XX asr o'zbek yetuk darg'alaridan biri Özbekiston xalq shoiri, Özbekiston qahramoni Erkin Vohidov. O'zining so'z qo'llash mahorati, so'zlardagi ta'sirchanlik, so'zga bo'lgan e'tibor bilan o'zbek shoirlariga yetakchilik qiladi. Shoир XX asrda she'riyatiga katta o'zgarish kiritib, aruz san'atini qayta hayotga qaytardi va bu vaznda samarali ijod olib bordi va latif she'rlar yaratdi. U yolg'iz aruzdagina emas, erkin va barmoqda ham xalqqa manzur bo'lgan asarlar yozdi. Erkin Vohidov sherlarida antonimlarni qo'llagan holda ko'plab ta'sirchan misralar bitgan. Xususan, Erkin Vohidovning quyidagi she'rida:

Qissa aytur moziydin goh, ertadan

Goh savol aytur ko'ngilga , goh javob aylar xayol.

Shoirning "Xayol" nomli she'ri bunga yaqqol misol moziy-erta, savol-javob qismlari antonimlikni yuzaga keltiradi. Yoki shoirning mashhur she'rlaridan biri "Yaxshidir achchiq haqiqat" ham bunga yaqqol misol.

Yaxshidir achchiq haqiaqat

Lek shirin yolg'on yomon.

Ul shirin yolg'onga mendek

Aldanib qolq'on yomon.

Shoir bu she'rda go'zal so'z o'yinlari qo'llagan va bir qancha antonimlikni qo'llagan. Yaxshidir achchiq- shirinhaqiqat- yolg'on kabi bir qacha zidlanishlardan foydalangan.

Yana shoirning "Dutorim tori ikkitadir" she'rda ham antonimlarni ko'rishimiz mumkin.

Dutorim tori ikkitadir:

Biri quvnoq, biri mahzun

Ku, baytim satri ikkitadir:

Biri dixush biri dilxun.

Shoirning "Nasihat" kulgu mushoiralari turkumidan she'rda qo'l va til, bir va yuz she'rlari zidlanish uchragan.

Qo'lin ishga mohir etma

Tilni gapga usta qil

Ishni bir qilgan joyingda

Gapni albat yuzta qil.

Aslida qo'l va til bir- biriga antonim emas lekin, shoirning mahorati she'r ichida bu so'zlar nutqiy antonimlar sifatida namoyon bo'lgan.

Shoirning Aruz va barmoq, Yo'jni qanday bor etay? Rais va shoir, Shaharmi bu qishloqmi bu? kabi she'rlarining nomida ham antonimlarga murojaat qilingan. Yana shoirning hammaga mashhur she'rlaridan biri Do'st bilan obod uying, she'ri ham ko'plab zidlanishlar asosiga qurilgan.

Do'st bilan obod uying

Gar bo'lsa vayrona ham

Do'st qadam qo'ymas esa

Vayronadir koshona ham.

Erkin Vohidovning O'zbegim , Inson qasidalar ham shular jumlasidan. Inson qasidasi har to'rtinchi misrasi zidlanish asosiga qurilgan. Masalan:

Karvon o'zing, sarbon o'zing

Bog'bon o'zing, posbon o'zing

Mehmon o'zing, mezbon o'zing

Ul yon o'zing, bul yon o'zing

Fattoh o'zing, qurban o'zing

Shayton o'zing, g'ilom o'zing ...

### **O'zbegim.**

Ilm-u she'rda shoh-u sulton, lek taqdiega qul

O'z elida chekdi g'urbat, zor-u nolon o'zbegim

Men seni Zuhro-yu Oy deb iltijo qildim va lek

Sen yiroqsan, garchi menga oy-u Zuhro bir qadam.

SHoirning Barcha shodlik senga bo'lsin she'ri ham boshdan oyoq antonimlarga qurilgan.

Barcha shodlik senga bo'lsin

Barcha sitam, zorlik menga

Barcha dildorlik senga bo'lsin

Barcha xushtorlik menga.

Erkin Vohidov she'riyatda bunday dur-u javohirlardan marjon-marjon, biz undan dengizdan tomchi sifatida yoritdik. Shoirning so'zga e'tibori, so'zga hurmati o'zgacha u so'zni " Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehirli sayohatlardan biri. So'z yaralishi mo'jiza. Avval,

so'z bo'lgan, deyiladi muqaddas kitoblarda" [ Erkin Vohidov, So'z latofati. O'zbekiston nashriyoti Toshkent 2018.]

Xullas, biz E.Vohidov she'riyatiga bir nazar soldik va she'riyatda qo'llangan antonimlarga murojaat qildik. Zero, bular barini o'rganmoq bizning burchimizdir.

## Foydalilanilgan asarlar

1. Erkin Vohidov. Saylanma she'rler. Toshkent sharq nashriyoti 2001.
2. Erkin Vohidov . Yaxshidir achchiq haqiqat. A . Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyiti. 1992.
3. Erkin Vohidov. Tabassum she'rler to'plami. Alisher Navoiy nomidagi xalq kutubxonasi nashriyoti. 2010.
4. Erkin Vohidov. Mening yulduzim she'rler to'plami. O'zbekiston milliy ensklopediyasi Toshket nashriyoti 2018.
5. Vohidov. So'z latofati. Toshkent 2014.
6. Diyorbek Toshtemir o'g'li Mahmud Erkin Vohidov g'azallarida tazod. Maqola.
7. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudov. Journal of Positive School Psychology 7 (5), 104-110, 2023
8. Rahimova, Maftuna. LEKSIK ANTONIMIYADA BELGILIK. 2022.
9. Bozorov, Oybek. Lingvistik Model. 2008.
10. Rahimova, Maftuna. Ma'no, tushuncha va predmetning o'zaro munosabati. 2023.
11. Rakhimova, M. "APPROACHING THE WORD AS A SIGN." Open Access Repository 9.5 (2023): 68-70.
12. Rahimova, Maftuna. Assotsiatsiya hodisasining psixologik va lingvistik talqini. 2022.